

O'zbeklar ham Temur bolalari

O'zbek ismi ostida O'rta Osiyoni istilo qilg'on xalqlarning eski joyi Dashti Qipchoqning bugungi Yoyiq daryosidan olib, Sirdaryoning quyisig'a qadar bo'lg'on yerlardir. Oltun O'rda xonlig'i mayda feodallilarga taqsim qiling'anda Jo'jining o'g'li Shayboniyg'a mazkur yerlar tekkandir. Bular Yoyiq bilan Sirdaryosining to'rtasida yoyilib, qishlab yurganlar. O'zbek muarrix Abulg'ozi Bahodirxon bu to'g'rida quydag'icha yozadi: "Otasi Shaybonxong'a cho'lduk yetib o'n besh ming uyluk el berdi. Boyri elindin qushchi va nayman va qorluq va buyrak bu to'rt uruq elni berdi. Toki aytdikim o'lturur yurtning og'om olchin birla mening oramizda bo'lsin, yozina qirg'iz, sovuqda eling to O'rol tog'inacha Yoyiqning kun tug'ush tarafini yoylog'ing qish bo'lg'anda Qoraqum va Sir suvining bo'yi, Chu suvining oyoqina qishlog'il edi. Shaybonxon ushbu aytilg'on yurtlarni yoylab va qishlab o'lturdi" deydi. "Bahrul abror" egasi ham: Jo'jixon bolasi Shayboniyxon rus, cherkass ulus, bulg'or ustiga bo'lg'on yetti yilliq safarida Botuxonning qoshida maqbul va manzur bo'ldi, shuning uchun unga hadiya tariqasida to'rt avmoq (aymoq) berdi" deb Abulg'ozining so'zini ta'kid qiladi. To'rt uruq el berganini "Bahrul asror" ham aytadi. Shuning bilan birga "Bahrul asror" Shayboniyning o'g'li Bahodirning yuz o'rda deb ham mashhur bo'lg'on Oqo'rdani qishloq va yoyloq uchun ixtiyor qilg'onlig'in so'ylaydi. Shaybon va uning bolalari O'rta Osiyoni istilolarig'a qadar shu o'zlarining udellarida ko'chib, qo'nib yurganlar. Bunday o'zbek qabilalarining Temur zamonig'a qadar O'rta Osiyog'a tomon harakat qilg'onliqlari ma'lum emas, ammo Temur zamonida Mavarounnahrda hujum qilg'onliqlari so'ylanadi. Temur o'zining tuzukotida o'zbeklarning ta'addudi va zulmlari zo'r bo'lg'onlig'in, Mavarounnahrni tinchsizlab turg'onliqlarini yozadi. Mavarounnahrda Chig'atoy xonlarining hokimiyat uchun kurashidan istifoda qilib bu mamlakatga mudoxala qilg'onliqlari ko'rinadi. Ammo Temurdan so'ng Mavarounnahrda hujumlari ko'prak uchraydi. Hatto Shohrux mirzo vaqtidanoq o'zbeklar Xorazmni istilo qildilar. O'zbeklar boshlig'i Abulxayr Xorazm viloyati volisi Ibrohim sultong'a yozhon talabnomasida: "Xorazm eskidan berli Jo'jixonning devonig'a tobe' bo'lib keldi, u viloyatni o'zining vorislariga topshiringiz" dedi, o'zining Jo'ji bolalarining vorisi ekanini da'vo qildi. Xorazm xalqi bo'lsa, o'zbeklarning talabiga qo'shiladular. Xorazmning boshlug'i bo'lg'on Ibrohim sultong'a mamlakatni topshirishni tavsiya qiladilar. Mamlakatning "ulug'lari"ning o'zbeklar tomonida ekanini ko'rgandan so'ng Ibrohim Sulton Xorazmni tashlab Shohrux yonig'a Hirotga qochib boradi. O'zbeklarning Xorazmni istilosi Shohruxqa qattiq ta'sir etdi. Lekin bir narsa ham ishlay olmaydi. Buning sababini quydag'icha ko'rsatadilar: "birinchidan turkmanlarning isyoni, ikkinchidan o'g'lining vafoti, uchinchidan qarilig'i, Xorazm masalasig'a aralashishg'a mone' bo'ldi" deydi. Bu sabablar orasida muhimi isyon masalasidir. Shohrux mirzo vaqtida Temur o'lkasida savdo sarmoyasi o'sgan, mustamlakalarni talash, jabr va zulum kuchaygon edi. O'shaning uchun mazkurdan yiroq bo'lgan viloyatlarda isyonlar ko'rinda boshlag'on edi. Shohruxning o'zbeklarga qarshi hech bir chora qila olmag'onig'a shu isyonlar sabab bo'lg'on bo'lsa kerak. Ammo o'zbeklarni Xorazmning

“ulugʻlari” yaxshi istiqbol qildi, deydilar. Masʻud ibn Usmon Koʻhistoniy oʻzining tarixida Abulxayrxonning oʻgʻli Suyunchxoʻjaning ogʻzidan eshitib oʻzbeklarning Xorazmni olgʻonligʻin hamda bularning boshligʻi Abulxayr toʻgʻrisida: “Otam Xorazmni olgʻondan soʻng xazinaning eshigin ochdi. Zamonlarning oʻtishi bilan burungʻi hokimlarning yiqqon xazinalarin taqsim etdi. Katta amirlardan ikkalasini xazinaning eshigi oldigʻa oʻtquzdi. Sipohlar va boshqalar ikkita, ikkita boʻlib keldilar, koʻtara olgʻoncha olar edilar” deb yozadi. Xorazm “ulamo va akobiri” Shohrux toʻgʻrisida bir narsa demagani holda Abulxayr haqida koʻp mubolagʻa bilan maqtaydilar. Voqeʻda Shohruxni maqtash kerak edi, chunki bu kishini Hirot ulamosi vali, sohibi karomat deb maqtaydilar. Gʻoyat dindor, taqvo, olim va ulamogʻa rioyali deydilar. Abulxayr boʻlsa, sohibi karomat emas, balki dindor boʻlishi ham shubhalik. Shunday boʻla turib buni maqtashlarida masala maʻlum, bulargʻa Abulxayr koʻp hadyalar bergan. Xalqning oliy tabaqasi oʻshalar boʻlgʻondan, shubhasiz bu guruhni oʻz tomonigʻa ogʻdarishqa tirishqon. Koʻp yillardan berli yigʻilib kelgan xazina ochilib taqsim etilganda bu guruhga muhim hissa tekkan. Oʻshaning uchun dasht hokimi Abulxayrni Temur bolasi Shohruxdan ortiq koʻrganlar. Hirot ulamo va akobiri saroy doirasida aylanishib Shohruxning doimo inʻom va ehsonigʻa mazhar boʻlgʻonlar. Shuning uchun uni “vali”, “sohibi karomat” deganlar, ammo xorazmlilarning undan yiroqligʻi Hirot dagʻi hadiya va peshkashlaridan mahrum boʻluvchiligʻi Abulxayrga yaqinlashishlarini mujib boʻlgʻon. Xorazm akobirining shodliqlarigʻa qarshi oʻzbeklar bu oʻlkada koʻp turmaydilar, Xorazmni tashlab ketishga majbur boʻladilar, Bahrul asrorning aytganiga koʻra oʻzbeklarning dasht havosigʻa oʻrganganligi, Xorazmda vabo kasalining paydo boʻlishi bu oʻlkani tashlab ketishlarina mujib boʻlgʻon. Bu voqeʻadan soʻng oʻzbeklarning istilo fikrlari bilan Oʻrta Osiyogʻa tajovuzlari koʻrinmaydi. Balki bular Temur bolalarining hokimiyat kurashlarida aralashib turgʻonlar. Temur bolalari kurash va tortishda, taxt uchun taloshlarda bularning himoyasiga sigʻingʻonlar. Magʻlub tomon oʻzbeklarga kelib iltijo qiladi. Yordam berishlarini soʻraydi. Oʻzbeklar albatta yoʻq demadilar. Yordamning bekorga boʻlmagʻusini biladilar shuning uchun Abulxayr baʻzan oʻzi, baʻzi vaqtda amirlarining qoʻli ostida askar yuboradi. Shohruxdan soʻng boshlangʻon taxt kurashida Shohruxning nabirasi Alouddavla, Ulugʻbekning nabirasi Mahmud Joʻki, Mironshoh bolalaridan boʻlgʻon Sulton Abu Said, nihoyat Husayn Boyqaro kabilar doimo oʻzbeklarga murojaat qilgʻonlar. Alouddavla Abulxayrning yordami soyasida ... oʻgʻli Hirotgʻa oʻrunlashadilar. Sulton Abu Said Mavarounnahr uchun kurashda yengilib Turkiston tomongʻa ketishga majbur boʻldi. U zamonlar Mavarounnahrda oʻzining katta boyligʻi, buyuk bir feodal darajasida zoʻrligʻi bilan shuhrat chiqazgʻon Hoʻja Ahror ismida bir eshon bor. Buning xalq orasida nufuzini, Mavarounnahr xalqining koʻpisi buning dehqoni ekanini Sulton Abu Said juda yaxshi biladi. Shuning uchun bu eshonni izlab Toshkant uyazdidagʻi Parkent qishlogʻina boradi. Bunday fursatni kutib turgʻon eshon uchun Abu Saidning kelishi zoʻr gʻanimat sanaladi. Xoʻja Ahrorning kengashi va maslahati bilan Abu Said Abulxayrxongʻa murojaat etib yordam soʻraydi. Abulxayr albatta yoʻq demaydi, butun Mavarounnahr, balki Iroq va

Xurosonni Abu Saidga olib beradi. O'zbeklar shu yordamlari barobarig'a ko'p g'animat oladilar. Eng qimmatli zahiralari, hadiyalarni Abulxayrning oldig'a qo'yadilar. Ulug'bekning to'rtinchi qizi bo'lg'on Robiya begimni Abulxayrg'a beradilar. Bu qadar mol va hadiyalarning o'zbeklar uchun ahamiyati albatta katta. Bundan so'ng Xo'ja Ahror juda ulg'ayadi. Abu Saidning birdan bir mushoviri bo'lib, mol mulkini yana ortiradi. Muhammad Jo'ki ham abulxayrg'a murojaat etib, mulkiga ega bo'lishni xohlag'anini bildiradi va yordam berishni iltimos qiladi. Abulxayr Burga Sultonni chaqirib: menim davlatimda sendan boshqa bu ishga mustahaq kishi yo'q sen bor, shu Temur bolalarini bu falokatdan qutqor, mazmunida so'ylab, bir miqdor askar berib Muhammad Jo'ki bilan yuboradi. Lokin Jo'ki bilan Burga orasida xottu harakatda ixtilof chiqqonidan bu safar mavaffaqiyatsizlik bilan bitdi. Nihoyat Temur bolalari orasida o'zining shoirligi bilan shuhrat chiqarg'on Husayn Boyqaro ham o'zbeklarga murojaat etadi. Bunga Abulxayrxon huzuriga kelishni "Habib us siyar" sohibi quydag'icha tasvir etadi: "Boqaroning kelishini eshitgandan so'ng Abulxayrxon o'zining nuyon va akobirini unga qarshi istiqbolg'a chiqoradi. Boqarog'a xon xuzuriga kirganda tobug' qilishni taklif etadilar. O'zbeklar qoshida tobug' qilish, boshidag'i ko'lohni chiqazib ruku qilg'on kabi bukulib, bir qo'ling bilan bir qulog'ingni ushlab taxt qarshisida turushdan iboratdir. Lokin Husayn Boyqaro buni qabul etmaydi. Nihoyat xon huzuriga kirganda tizzani bukishga rozi bo'ldi. Xon zo'r ehtiromla uni qabul qildi, o'zining yonig'a o'tquzdi. Bazm yasadi, qimiz, sharob, bol (asaldan yasalg'on musallas) icha boshladilar. Majlis qizig'ondan keyin Abulxayrxon boshidag'i qalpog'ini olib Boyqarog'a tobug' qildi. Siz bizga kirganigizda tobug' qilmasangiz ham men sizga qilaman, dedi. Boyqaro ham o'rnidan sakrab turib Abulxayrga tobug' qildi. Abulxayrning yonida bir qancha vaqtlar turdi. Abulxayrda ko'p askar bilan Xurosonni istilo qildirish fikri bor edi. Lokin shu vaqtlarda o'lib ketishi sababli bu yordam vujudga chiqmay qoldi") deydi. Bundan so'ng Abulxayr boshliq bo'lg'on o'zbek eli tarqaladi. O'zbeklar orasida chiqqan hokimiyat janjali bulardag'i birlikka katta zarba berdi. Bu o'zbek elini tarqalg'oni haqida Abulg'ozi quydag'icha so'ylaydi: "Abulxayr tug'ilishi do'stlarini kuldurub, dushmanlarni yig'latib yurgan kishi erdi. To'rt yonidag'i o'lturg'on qarindoshlarining hech qaysini tiri o'tmagan va qo'li yetmagani yo'q edi. Ul sababdan barchasi bosh ko'tardilar. Toki Abulxayrxonni o'lturdilar, oning garchi o'g'li va nabirasi ko'p erdi, andog' ham bo'lsa ko'p dushman qo'l suqti, o'g'lonlarning bir nechasin o'lturdi.

Qolg'onlari to'rt yoqqa qochdilar, ko'p elning barchasin to'rt yoqqa tuzdurdilar" deydi. Bundan so'ng bir tomondan qozoqlar ikkinchi tomondan mang'itlar mudoxala qilib o'zbek birligiga katta zarba berdilar. Abulxayrning bolalari tarqalib bitdilar. Bu tarqalg'on elning takror yig'ilishida bularning boshidan Abulxayrning nabirasi Shaybonixon ko'rinadi. Shayboniy o'ziga qarag'an bir qadar o'zbeklar bilan boshida Turkiston dalalarida So'zoq, Sig'noq, Arquq shaharlarining atrofida qozoqliqda yuradi. Bulardan xorij qozoq va mo'g'ullarning Mavarounnahr ustida, Turkiston dalalarda kurashlari bor. Bular ham o'lkani qo'lg'a tushirish uchun talashadilar. Ikkinchi tomondan o'zbeklarga qarshi tajovuz yo'l ushlab, kengilarni tazyiq ostida qoldirdilar. Qozoqlar bilan

mang'itlar birlashib O'rdag'a hujum etadilar. Mavlono Binoiy o'zining Shayboniy nomasida qozoqlarning kurashini quydag'icha yozadi: bir necha kundan so'ng xabar keldikim Burunduqxon va Qosim Sultonkim Jonibekxon (Qozoqxon)ning avlodidandurlar va Atik Sulton va Hamzabek ittifoq etib lashkari Begaron bilan Sig'noq ustiga yurush etibdurlar. Xon qal'anining atrofin ehtiyot etib o'lturdi, chun Burunduqxon keldi, qal'ani atrofin muhosara qilib har tarafdin urush boshlar erdi.

Andin so'ng Burunduqxon tamomi umaro va lashkar va Jonibekxonning farzandlari va mang'it lashkari bilan Sig'noqqa kelib harchand jaddu jahd qildilar, hech vajah bila qal'ag'a dast topa olmay xoib va xosir qaytillar”.

Oxirul amr maslu qozi sadr val islom va chaqmoq yuz va Siddiq shayx boshliq tamomi Sig'noq aholin talab etib dedilarkim burundin bu viloyat Burunduqxong'a mutaalliq erdi. Emdi munosib budurkim bu viloyatni Burunduqxong'a berila taftina taskin topqay. Bas bir kun Shayboniyxon O'zgand tarafig'a borib erdi, ul jamoa majol topib Burunduqxonni talab etib Sig'noq qal'asin unga taslim etdilar” deydi. Qozoq va mang'itlarning bir bo'lib o'zbeklarning viloyati ustida kurashin ochiq suratda etadi. Bu kurashlarda o'zbeklar zaiflanadi, Buxorog'a Abduloliy tarxonning yonig'a keladi. Bu kishi burun vaqtda Abulxayrdan yaxshiliqlar ko'rgandan, Shayboniyga ko'p iltifotlar ko'rsatadi. Bu vaqt Mavarounnahrda mo'g'ul xonlari hujum qilib turg'ondan, o'zbeklarga Temur bolalarining ehtiyoji juda zo'r edi. Shuning uchun Samarqand xoni Sulton Ahmad Shayboniyning Samarqandg'a chaqirtiradi. Mo'g'ullarg'a qarshi urushda ishtirok qilishni, yordam berishlarini so'raydi, lekin bu Shayboniy qo'li ostidag'i o'zbeklar samarqandlilarga yordam berish emas, balki mo'g'ullarg'a qo'shuldilar. Buning sababini Sulton Ahmat mirzoning o'zbeklardan qo'rqishi deydilar. Yordamg'a chaqirg'on bo'lsalarda so'ngidan o'zbeklardan qo'rqub ko'chishlardan shubhalanib bularni yo'qotish fikrini bo'lg'on deydilar.

Yozma Shayboniy noma bu to'g'rida: “Sulton Ahmat mirzo mo'g'ulg'a cherik qo'rab borurda Muhammad Shayboniyxonni to'yi bisyor takliflar qilib chorlab turur, ul holda havodor kishilardan pinhoni xabar berib tururlarkim sizga yomonliq sog'inadurlar debdur. Bu xabarni bilib o'zin ehtiyot qilib ikki – uch yuz navkarlaridin mustaid qilib o'zi birla mirzoning eshikiga olg'och kelib turur.

Mirzo qoshinda xon kirganda havl uyining eshigin olib bu mustaid navkarlarin va yasovullarin eslamay har birin urub yiqib kelib o'lturg'anda mirzo va barcha beklar ul yig'indag'i navkar tamom bularning bu tavr kelib o'lturg'onidin bisyor va ham aytibdurlarkim agar ushbu navkarlari birla ham bizga qasd qilsalar barchamizni qirarlar, andin so'ng ko'k gumbazga yetkanada yomonliqlarni angiz etib mehmondorliq qilaydeb chorlab tururlar. Andovg'a kelgan bekga xon aytib dururkim men sizlarning fikringizni bilib tururmen, sizlar sog'inmangizkim men sort lardek sizlarga bo'yun sunub turg'oymen, bu fikrlaringizni qo'yub bizning birla burung'idek yaxshiliq ustida bo'lsangiz, borib! Yog'ilaringizni yog'ilaymen va sizlar birla bo'loyin, yo'q agar bu

so'zingizni qo'ymasangizlar to'yingizg'a bormaymen va agar borsam ko'pingizni qirarman deb aytubturur".

Ikki orada hosil bo'lg'on shunday sovuqliq natijasida Temur bolalari bu o'zbeklardan yordam ololmaydilar. Bu vaqtlar ya'ni o'zbeklarning istilosi oldida Mavarounnahr g'oyat mayda viloyatlarga bo'lingan, har birisi mustaqil bo'lib, bir markazga tobiot etgan. Samarqandda Mirzo Ahmad Sultonning o'g'li Sulton Ali Mirzo hokim, buning so'ziga farmoyishiga viloyatlar emas, balki, o'zining yonidag'i amirlari ham quloq solmaydi. Bunda hokimiyatdan faqat ismigina qolg'on. Butun hukumat ishlari amirlar qo'lida bo'lib, Sulton Ali Mirzoning hech bir ahamiyati yo'q. Hatto buning yeydig'on ovqotin ham amirlar o'lchab beradilar. Tilaganicha osh, oshab – ichish o'z ixtiyorida emas. Kuniga go'sht berganlarida bir put go'shtni kuchiga beradilar. Ming mashaqqat bilan o'shani ham kuchga oladig'on bo'lg'on. Ammo hokimiyat masalasi tamomi bilan amirlar qo'lida bo'ladi.

Binoiy ham Sulton Ali Mirzoning ahvoli tang, hokimiyat buning ixtiyorida emasligin yozadi. Mavarounnahrning markazida bo'lg'on xonning ahvoli shu bo'lg'ondan so'ng, markazdan yiroq bo'lg'on Farg'ona, Buxoro kabi viloyatlarning qanday bo'lishlig'i ma'lum. Mavarounnahrda savdo sarmoyasi o'sgan vaqtda xalq ko'pgina, bular shubhasiz mustamlaka hisobig'a yashab ulardan ketirilgan boyliq hisobig'a o'sgan.

Amir Temur o'ttiz olti yil bo'yi Ozarbayjon, Eron, Shom, Hindiston kabi o'lkalarning boyliqlarin tashig'on. Temurning o'g'li Shohruxdan so'ng mustamlakaliklar ajralg'och, bularning yelkasida tirikchilik qiluvchi Mavarounnahr shubhasiz tushuga majbur bo'ldi. Shuning natijasida o'lka maydalandi, hokimiyat janjali kuchaydi. Temur, Shohrux, Ulug'beklar vaqtida vujudga kelgan madaniyat o'zbeklar istilosidanoq yemiriladi Temurlarning so'ngi vaqti hokimiyat uchun kurash, burun vujudga kelgan madaniyatni yemirish bilan o'tdi. Bularning so'ngi vaqtin o'sha Temurlardan bo'lg'on va bular orasida eng mustaid hisoblang'on Bobir Mirzo o'zi yozadi. Bobirnomasida bu xususlarida tafsilli ma'lumot beradi. Buning yozishig'a qarag'anda, mamlakat g'oyat mayda qismlarga bo'lingan, Hisor tomonlarda bir to'qtovsiz urushlar bo'lib turg'on.

Po'lat Soliyev.

“Maorif va o'qituvchi” jurnali. - 1928. № 5-6.

(O.Z.)